

Ona yurtning - oltin beshiging

# TONG yulduzi

N: 4-5  
(66493-94)

2005 yil  
24 yanvar - 6 fevral

Gazeta 1929 yil  
1 avgustdan chiqa  
boshlagan

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.



## SALOM, AZIZ GAZETAM!

Do'stim, eng yaqin sirdoshim, sen bilan gaplashgim kelaveradi. Mana navbatdagi dilnomamni yozib bo'ldim. Har gal senga maktub yo'llaganimda, vaqtning qanday o'tganini sezmay qolaman, soatga qarasam, yarim tun. Ayniqsa, tahririyat binosida tashkil etilgan ijodkor o'quvchilar to'garigidagi bolalarni ko'rsam ularga havasim keladi. Sahifalaringda ularning ijod namunalari muntazam chop etib turilishi, hamda televideniye orqali bolalar bilan suhbatlar uyushtirilishini ko'rib qalbim quvonchlarga to'ladi. Viloyatlarda istiqomat qilayotgan yoshlarning bunga imkoniyatlari chegaralangan. Eshitishimcha, sirdan ham to'garak mashg'ulotlariga qatnashish mumkin ekan. Qaniydi shu gap rost bo'lsa. Men va qishloqdagi do'stlarimning barchasi jon deb

a'zo bo'lishardi. Faqat sen bizga buning uchun nimalar qilishimiz lozimligini aytasang bo'lgani. O'zim she'rlar, maqolalar yozib turaman. Sevimli gazetam, 2005 yilda imkoniyatim bo'lmaganligi sababli senga obuna bo'la olmadim. Sen bundan aslo ranjima. Ammo har bir soningni muntazam o'qib borishni ilojini topganman. Qanday deysanmi? Tumanimizdagi Madaniyat uyi kutubxonasiga «Tong yulduzi» gazetasi keladi. Har hafta u yerga borib har bir soningni albatta o'qib boraman. Tahririyatdagi barcha xodimlarga sog'lik-omonlik, seni esa ko'kdagi tongning yulduzi kabi porlab turishingni istayman.

**Guljahon ATABOYEVA,**  
Samarqand viloyati, Oqdaryo  
Pedagogika bilim yurtining  
huquqshunoslik bo'limi I-bosqich  
talabasi.

**TAHRIRIYATDAN:** Aziz bolajonlar, poytaxtdan uzoqda yashayotgan Guljahon kabi ijodkor tengdoshlaringiz «Tong yulduzi»ning sirtqi to'garigiga bemalol qatnashishlari mumkin. Buning uchun o'zingiz istiqomat qilayotgan manzilingiz, ta'lim maskaningiz va ijod namunalarigizdan saralab, bizga yuboring. Maktub ustini aniq yozuvlar bilan to'ldirib, «Tong yulduzi»ning sirtqi to'garigiga, deb yozib qo'ysangiz bas. Sahifalarimizda ulardan albatta foydalanamiz va sizga maktub orqali javob yo'llaymiz.

## BIZ BILAN QOLGIN

Mana, «Mehr va muruvvat yili» ham ortda qoldi. Yoshimiz yana bittaga ulg'aydi. Prezidentimiz 2005 yilni «Sihat-salamatlik yili» deb e'lon qildilar. Istardimki, mehr-muruvvat ko'rsatish eski yilda qolib ketmay, bir umr bizga hamrohlik qilsin.

**MEHR-MURUVVAT**

Ko'ngildagi ishonch shamlari so'nsa,  
Ko'zlarga g'am-anduh yoshlari qo'nsa.  
Olam ham bezaksiz archadek qolsa,  
Ko'ngillarda mehr olovi yonsin,  
Muhtojlik muruvvat nuriga qonsin.  
Dunyo qulaganda g'afiat komiga,  
Inson yaqinlashsa g'urbat domiga.  
Sabr-bardosh oxir yetsa joniga,  
Ko'ngillarda mehr olovi yonsin,  
Muhtojlik muruvvat nuriga qonsin.  
Furakka qo'nsa zarracha g'ubor,  
Fermulib ayrilsa qaqshagan diydor.  
Ota-ona farzandidan bir kun qilsa or,  
Ko'hna dunyo borlig'i ko'rinadi tor.  
Ko'ngillarda mehr olovi yonsin,  
Muhtojlik muruvvat nuriga qonsin.

**Gulnoza QO'SHSHAYEVA,**

Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi  
A.Navoiy nomli maktab o'quvchisi.

## SENGA KELGAN BOLTAGA...

O'rmondan kelgan ko'yi,  
Yasanibsan kun bo'yi.

Shoxlaringda o'yinchoq  
Ming chiroqli ko'zmunchoq.

Izzatingni qildik biz,  
Mezbontlikni bildik biz.

Gurkirading barq urib,  
Xush bo'yingni ufurib.

Bayram bayramdek o'tdi,  
Bizga hayrondek o'tdi.

Goh keng, goho tor bag'ir,  
Bizlar odammiz ahir.



Fangi yilga so'zim bor,  
Archajonga to'zim ber.

Archa, archa, archajon,  
Shoxlaringda ming marjon.

Senga kelgan boltaga  
Boshim qo'yib beray jon...

UMIDA.



## ZIYO MASKANI

Dunyoda shunday insonlar borki, bu insonlar o'zini yaxshiliklarga, ezguliklarga bag'ishlab yashaydi. Birovlarning kemtik ko'nglini butun qilib, hayotdan zavqlanib yashashga undaydi. Bizlar respublika nogiron bolalar rassomchilik maktabida tahsil olamiz. Ta'lim maskanimiz shinam xonalar, turli-



tadbirdar,

turiladi. Bunday kecha va tadbirlarimizga tanqil san'atkorlarimiz Gavhar Zokirova, televidenyeye suxandoni Galina Melnikova, «Tong yulduzi» gazetasi rassomi Nodira Mirzayevalar tashrif buyurib, biz bilan qiziqarli mavzularda suhbatlar uyushtirishadi. Turli-tuman sovg'alar ulashib, ko'nglimizni ko'tarishadi. Biz ulardan juda minnatdormiz.

**Dilfuza OBIDJONOVA,**  
Nogiron bolalar rassomchilik maktabining  
7-sinf o'quvchisi.

tuman jihozlar bilan yetarlicha ta'minlangan. Bu yerda modelyer-dizaynerlar, rassomlar, tikuvchi zardo'zlar tayyorlaydigan to'garaklar muntazam ishlab turibdi. Sinf rahbarimiz Gulsara opa erta-yu kech biz bilan birga. Ba'zan nogironlar aravachasida o'tirganimizni ham unutib qo'yamiz. Maktabimizda turli qiziqarli kechalar tez-tez o'tkazib

Kuzgi, bahorgi ta'tillarning yaxshi tomonlari ko'p. Ammo men qishki ta'tilni juda sevaman. Nega deysizmi, qish faslida bayramlar ko'p, barcha bir-birini tabriklab sovg'alar ulashishadi. Qorbobo, Qorqizning sirli tashriflari, yam-yashil archa atrofidagi xursandchiliklar, uyimizga barcha qarindosh-urug'larimizning yig'ilishi biz bolalar uchun katta xursandchilikdir. Amma-amakilarimning farzandlari bilan hammamiz 16 kishimiz. Biz, bolalar esa, ta'tilda kim qayerlarga bordi, qanday ishlar bilan mashg'ul bo'ldi, bir-birimizga gal bermasdan so'zlaganimiz-so'zlagan. Men oilamiz bilan Cho'pon-otada yashaydigan katta oyimlarnikiga

mehmonga bordik. Uyga kelsam, sevimli gazetam «Tong yulduzi»da ilk maqolam chop etilganini, dadajonim qayta-qayta tabriklab, mening muxbir qizim, deganlarini quvonch bilan qarindoshlarimga aytishdan to'xtamasdim. Beg'araz bahslar, tortdtdik. Buvijonim hamisha «Suv balosidan, o't balosidan



## TA'TIL YAXSHI-DA...

davom etdi. Mehmonlarni kuzatib televizor qarshisiga yig'ildik. Televidenyeda Indoneziya va unga qo'shni mamlakatlarda ro'y bergan suv toshqini falokatlarini ko'rsatishardi. Tasvirdagi odamlarni ko'rib ularga rosa

achindim. Men tengi bir qiz bir yo'la ham ota-onasidan, akasidan ayrilib qolibdi. Buvim Qur'on o'qidilar, hammamiz shahid ketganlar ruhiga yuzimizga fotiha asragin», derdilar. Ular menga yuzlanib, «Ona qizim, suv balosi degani mana shu bo'ladi. Alloh hamisha bandalarini balodan, ofatdan asrasin. Yurtimizning tinchligi bizning bebaho boyligimiz, ilohim yomon ko'zlardan asrasin», deganlaricha o'rnilaridan turdilar.

Ta'til tugagach, singlim, dugonalarim bilan qadrdon maktabimizga yo'l oldik. Endi o'quvchilik burchimizni bajarishga kirishamiz. Ya'ni, a'lo o'qish, jamoat ishlarida faol bo'lish, tinmay izlanish, dars tayyorlash kabi yumushlarimiz bisyor. Hammasini uddalashga intilamiz. Chunki yurtimiz ertasi, egasi bizlarmiz. Istagim, o'zim kabi dunyodagi barcha bolalar baxtli, bexavotir yashab, hamisha quvna yurishsin.

**Mehruzin ABDUG'AFUROVA,**  
Toshkent shahri,  
Chilonzor tumanidagi  
131-maktabning 4-«A» sinf  
o'quvchisi.


## QADRDON QISHLOG'IM

Bizning qishlog'imiz Mo'minobod deb ataladi. U juda katta va obod, odamlari bir-birlari bilan ahil-inoq yashashadi. Rivoyat qilishlaricha, qadimda qishlog'imiz cho'l bo'lgan ekan. Bu yerga birinchi bo'lib Mo'min ismli bir kishi ko'chib kelibdi va uy qurib, suv olib kelibdi. Mevali, manzarali daraxtlar ekibdi, gullar o'stiribdi. Bu yerni go'zal va sersuvligini ko'rgan boshqa odamlar ham ko'chib kela boshlabdilar. Keyin bu qishloqqa o'sha kishining nomi berilibdi va Mo'minobod deb yuritila boshlabdi. Qishlog'imiz keyinchalik yana obodonlashtirilib, bu yerga ikkita bolalar bog'chasi, ikkita maktab, bir nechta savdo do'konlari qurila boshlagan. Men shu qishloqdagi 45-o'rta maktabda o'qiyman. Sinf rahbarimiz Shahnoza opa Sohibova bizga har bir ishda bosh-qosh bo'lib turadilar. Sinf doshlarim ham bir-birlari bilan juda inoqlashib ketishgan. Qishlog'imizda yana musiqa maktabi ham bor. Musiqaga oshno bo'lgan o'quvchilar bu maktabda milliy cholg'u asboblari va raqs sirlarini o'rganishmoqda. Bu yerdan Xisor tog' chizmalari ko'rinib turadi. Ayniqsa, bahor faslida tog'larga qarab to'yamaysiz. «Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal», deyishadi. Yaxshisi, qishlog'imizga bir marta kelsangiz, bunga o'zingiz amin bo'lasiz.

**Gulsanam TO'RAYEVA, 5-«G» sinf o'quvchisi.**

## SALOMATLIGINGIZ O'Z QO'LINGIZDA

Millatimiz kelajagi siz aziz to'g'ri va aralashtirib iste'mol qilishning bolajonlarning qo'lida. Sizlarni sog'lom, o'zi kifoya. Go'sht va baliqdan tanaga baquvvat, aqlan oson so'riladigan yetuk bo'lib v o y a g a tayyor temir moddasi uchun diyorimizda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda butun dunyoda muammo bo'lib



kelayotgan bolalarda uchraydigan kamqonlik kasalligini oldini olish barchaning diqqat markazida. Sizlarning salomatligingizga kattalar qanchalik e'tibor qaratmasin, eng avvalo bu sizning o'zingizga bog'liq. Joylarda o'tkazib kelinayotgan «Yod tanqisligi va kamqonlikni oldini olish» mavzuidagi seminar treninglarda kamqonlikni oldini olish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozimligi uqtirilmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri Angren shahrida bo'lib o'tdi.

Sog'lom bo'lish va kamqonlikni oldini olish uchun ko'p harakat talab etilmaydi. Faqatgina temir moddasiga boy bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini

bo'lgan m a n b a a hisoblanadi, lekin ulardagi temir moddasi organizmga q i y i n r o q so'riladi. Dukkaklilar, yormalar temir moddasiga juda boy oziq-ovqatlar bo'lib, shuning uchun ular go'sht o'rnini bemalol bosa oladi. Lekin ularni choy, kofe, kakao, sut mahsulotlari bilan iste'mol etish man etiladi. Bizda bitta odat bor. Ovqatlanish paytida choy ichishni

kanda qilmaymiz. Biroq ovqatlanayotganda choy ichilsa, temir moddasining organizmga so'rilishi sezilarli darajada kamayadi. Mutaxassislar choy, kakao, kofe, sut ichimliklarini ovqatlanishdan 2 soat oldin yoki, 2 soat keyin iste'mol qilishni tavsiya qiladilar. Ovqatlanish paytida ko'proq meva-sharbatlari, na'matak yoki quruq mevalarning damlamalarini ichish afzalroqdir.

«Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati

Toshkent viloyati

bo'limi tashabbusi bilan bo'lib o'tgan m a z k u r s e m i n a r d a Angren shahar kengashi faollari, shahar sog'liqni saqlash bo'limi, s h a h a r salomatlik markazidan vakillar ishtirok



etishdi. Yaqin kunlarda ana shu

mavzudagi tadbirlarning navbatdagi Piskent tumanida o'tkazilishi mo'ljallanmoqda.

**Amrullo KARIM.**

## BOG'DA

Bog'da o'ynar edilar,  
Madina va Kamola.  
Mezbon bo'ldi Madina,  
Kamola esa mehmon.

Dasturxonga qo'yilgan,  
Shirin noz-u ne'matlar.  
Kulcha, olma-yu bodom,  
Pista-yu marmeladlar.

Birdan eshik taqillab,  
Kamolaxon ko'rindi.  
Uni uy sari chorlar,  
Madina bo'lib mezbon.

Oling-oling boshlandi,  
Fo'kin edi dasturxon.  
O'yin bahonasida,  
Fo'yib oldi Kamolaxon.

**Dilsora OTANIYOZOVA,**  
Qashqadaryo viloyati, Mirishkor  
tumanidagi 24-umumiy o'rta ta'lim  
maktabining 5-«V» sinf o'quvchisi.

Bolgariya Janubiy Yevropaning Bolqon yarimorolida joylashgan, 111 ming kvadrat kilometr hududi Qora dengiz to'liqlari bilan yuvilib turadigan, yerining oltin foizi tog'lardan iborat go'zal bir mamlakatdir. Bolgar xalq og'zaki ijodiyoti namunalarida, shuningdek, yozma adabiy asarlarda ham Stara-Planina (Ko'hna Planina), Sredna-gora (O'rta tog') nomli tog' tizmalari, Pirin va Rodoplar degan obod mintaqalari ko'p kuylangan. Umuman, bolgar xalq ijodiyoti janr va mavzu jihatidan ham, stilistik o'ziga xoslik tomonidan ham rang-barangdir. She'riy va nasriy ertaklar bilan birga qo'shiqlar, she'riy dialoglar, maqol, matal, topishmog, tez aytish va sanamalar, uydirma cho'pchaklar juda son-sanoqsizki, ularning bari bolalar yashayotgan dunyoni unutilmas tarzda aks ettiradi. Biz ularning og'zaki ijodi orqali bolgar bolalarining hayotini, ruhiy quvnoq va go'zal olamini ilg'ab olamiz. Biz bolgar xalq ijodiyoti haqida gap ochganimizga sabab shuki, bu safar sizlarni atoqli bolalar shoiri Asen Bosev ijodining folklor bilan bog'liq bir tarafi bilan tanishtirmoqchimiz.

Asen Bosev 1913 yilda Bolgariya dehqon oilasida tavallud topgan bo'lib, avval Pedagogika bilim yurtini, keyin Sofiya davlat universitetini tamomlagan. Uzoq vaqt maktabda o'qituvchilik qilgan, keyin asta-sekin jurnalistika bilan shug'ullana boshlagan. Bolalar



Shohinur ham ertangi kitobxon.  
Unga yana qanday kitoblar chop etilarkin-a?

uchun birinchi kitobi 1941 yilda bosilib chiqqan. 1944 yilning 9 sentabridan boshlab bolgarlar davlat monarxiyasiga barham berib, xalq demokratik yo'nalishidagi yangicha hayot sari qadam qo'ydilar. Bir guruh bolalar shoirlari ana shu davrda maydonga otilib chiqdilar.

Angel Karaylichev, Emilian Stanev, Stoyan Daskalov, Pyotr Neznakov, Svetan Angelovlar qatorida Asen Bosev ham bor

edi. Asen Bosev Bolgariyadagi yangi hayotni, maktab bolalarining ijtimoiy-siyosiy kurashlardagi faoliyatlarini kuylovchi ko'p kitoblar yozdi. Ko'pincha u yumorga, mazax-masxaraga murojaat qilar, shu orqali bolalar ongidagi qoloqlik alomatlariga qarshi kurashar edi. Kichik-kichik yumoristik she'rlaridagi individual qahramonlarning obrazlari o'quvchilar zehninga joylashib qoldi. «Esar Vanka»,

yerga tushganidan tortib nonga aylanguncha va nonvoyxonaga, so'ng do'konga, oxiri dasturxonaga kelguncha o'tgan jarayonlarini ajoyib manzaralar berish orqali hikoya qiladi. Dalalarda, fermalarda, ustaxona va fabrikalarda ishlayotgan millionlar mehnatini tarannum etadi. «Sehrli tayoqcha» she'rida tez-tez o'zgarib turuvchi bolalar o'yinlari ularning fantaziyasini

## DUNYO BOLALAR ADABIYOTI

«Kircho sud qarshisida» kabi she'rlari shular jumlasidandir.

Asen Bosevning keng miqyosli ijodiyoti har xil yoshdagi bolalarga mo'ljallangan. Kichiktoylarga yozganlari ham talaygina. «Besh jurnalist chumchuqcha», «Gosho anglay boshladi», «G'oliblar», «Ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan bir g'aroyibot» kabi.

Asen Bosev ijodining bosh xususiyatlaridan biri shuki, u har doim hozirgi zamon bolalarining o'z atroflaridagi muhit bilan to'qnashuvlariga katta ahamiyat beradi, ularni hayotga hozirlaydi, bolalar e'tibor bermay o'tib ketgan, ular uchun tushunarsiz bo'lgan hodisalarning ichki tomonini ochib beradi. «Chin yurakdan tashakkur», «Quvnoq g'aramlar», «Traktor» kabi dostonchalarida ham xalq mehnatini ulug'laydi, chunonchi, don

tasvirlaydi: tayoqcha birda bolakayga, birda toychoqqa, birda samolyot, birda nog'oraga xizmat qiladi. Asen Bosev aksar hollarda xalq og'zaki ijodiyotiga murojaat qiladi, bolalar ongiga xalq hikmatlarini singdirishni o'zining muqaddas burchi deb biladi. Uning bunday she'rlari bizning xalqimizdagi bizga tanish folklor syujetlarini yodga soladi. Asen Bosevning she'r va dostonlari Bolgariya juda ko'p nusxalarda qayta-qayta nashr etiladi. Va qo'shni mamlakatlar tillariga ham ko'p tarjima qilingan. Rus tilida nashr qilingan kitoblari ham o'nlar chadir. Biz quyida shoirning ana shunday she'rlaridan ayrim namunalarni e'tiboringizga havola etayotirmiz.

Miraziz A'ZAM.

## AQLLI O'G'IL

Bir cholning uch nafar o'g'li bor edi,  
Uchchovi yetilgan jussador edi.  
Bir kuni chol dedi o'g'illariga:  
-Ertaga bir bayram qilamiz birga.

Go'shtli non bezaydi sufra ustini,  
Kim birinchi bo'lib ushatar uni?  
-Men, dedi to'ng'ichi chaqqonlik bilan,  
Chunki men bu yerda katta o'g'ilman.

-Faxshi. Nonni yeymiz. Oldinma-кетин,  
Sufraga qo'yaman pishgan qo'y etin.  
Kim birinchi olar qo'yning etidan?  
-Men, der to'ng'ich o'g'il bu gap ketidan.

-Undan so'ng bo'ladi qovrilgan g'oz.  
-Uni ham men o'zim qotiraman boz.  
-Ertaga ertalab men bilan birga  
Polizga ishlashga kim borar qirga?

Fo'ng'ich o'g'il olg'a tashladi odim.  
-Nega ukalarim turishibdi jim?  
Ulardan ham sal-pal sado chiqsin bir?  
«Men», «men» deyaversam bo'lmaydi axir!

## UCH DARAXT

Fog'lar etagida bir kun bahorda  
Uch daraxt gaplashib qoldi nahorda.  
-Yashashimiz zo'ra yorug' dunyoda.  
-Barglar-la sirlashar mayin shabboda.

Bizga tinmay kuylar mehribon ariq,  
Bag'rimizda qushlar aytishar qo'shiq.  
Kun silar, yayraymiz yomg'irli kunda,  
Qanday yaxshi hayot hali oldinda,-

Dedi daraxtlardan biri jilmayib.  
Boshqasi e'tiroz bildirdi g'arib:  
-Fo'g'ri-yu, umrimiz emas-da uzun-  
Bir daraxt kesuvchi keladi bir kun,

Fanimizga urar o'tkir boltasin,  
Jazolay boshlaydi, chiqarmay sasin.  
Bir soat ichida parchalar bizni,  
Hatto qazib olar ildizimizni.

O'samiz, gullaymiz, o'lamiz birdan...  
Uchinchi daraxt der unga javoban:  
-Hech bunday bo'lmaydi, taqdir kulmasa,  
Bolta bolta emas sopi bo'lmasa.

Ammo sop qilinar yog'och-taxtadan-  
Archami, emanmi, tol daraxtidan.  
Daraxt kesuvchining tutib qo'lini,  
Qudratli devorday to'sib yo'lini,

Bilag'on bolalar diqqatiga!  
Siz gazetamiz sahifalarida  
uchraydigan xatolarni albatta topib,  
bizga ma'lum qiling. Chunki atayin  
bilag'on va topag'onligingizni sinash  
maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki  
qo'shib yoziladi. Tinish belgilari o'z o'rnida  
ishlatilmaydi.

**Maqsadimiz:** Bilimli bo'ling, chunki  
osmonni yulduzlar yerni esa  
bilimlilar bezar.



Bermasak bitta ham shox-u butoqdan-  
Na biron chinordan, na bir yong'oqdan-  
Uldizlar chirmashsa biri-biriga.

Shoxlar ham matashsa biri-biriga,

Zich bir saf ichida tursa har daraxt,  
Birlilik-hamjihatlik keltirgaydir baxt,  
Yerdagi daraxtlar bari tursa zich,  
Hech bir kuch biz uchun bo'lotmas qo'rqinch.

Asen BOSEV.

Barno MANNOPOVA,  
A.Ikromov tumanidagi 203-  
maktabning 7-«Ye» sinf  
o'quvchisi:

- Darsdan



qaytgach, oyijonim tongda  
buyurib ketgan uy  
yumushlarini bajaraman.  
Darslarimni tayyorlab  
bo'lgach, pianino  
chalaman. Umuman  
olganda, bo'sh  
vaqtlarimda tikishni,  
pianino chalishni  
yoqtiraman. O'zim  
mustaqil ravishda  
«Kichik negr»,  
«Moviy vagoncha»,  
turli valslarni chala olaman. Yana  
ingliz tilida gapirishni o'rganayapman. Opam Ra'no  
ham menga uy yumushlarida yordam beradilar. Ular  
ovqat pishirib bo'lgach, kompyuterda turli dasturlarda  
ishlashni o'rganadilar.

ILHOMJON, Parkent tumanidagi  
12-o'rta maktabning 7-sinf o'quvchisi:

-Hozir qish kunlari bo'lganligi uchun ko'proq  
uyda televizor ko'raman. Ba'zi bolalar o'g'il bola uy  
yumushlarini bajarmasligi kerak, deb o'ylashadi.  
Lekin men oyijonimga har doim yordam berib  
turaman. Yana ko'proq badiiy kitoblari o'qiyman.  
Ulardagi turli obrazlarni o'zimcha tahlil qilaman.  
Albatta yaxshi tomonlarni olib qolishga harakat  
qilaman. Kitoblari aql farzandlaridir, degan ekan  
faylasuf J.Svift. Ko'p kitob o'qigan bolalarning  
tafakkuri keng, bilim doirasi ham boshqalardan biroz  
ajralib turadi. Bo'sh vaqtlarimni o'zim sevgan kitobni  
o'qish bilan o'tkazaman.

Sherzod USMONOV, A.Ikromov tumanidagi  
«Orom» nomli umumiy o'rta ta'lim va tarbiya  
berish maktab-litseyining 3-sinf o'quvchisi:

-Men sportning karate turiga qiziqaman. Sport  
bilan shug'ullangan kishi jismonan baquvvat, aqlan  
teran, irodali bo'ladi, deyдилar oyijonim. Men ham  
kelajakda ana shunday mukammal inson bo'lishga  
harakat qilaman. Kuchimni zaif, nimjon balalarning  
ustidan kulish uchun emas, balki ularni himoya qilish  
uchun sarflayman.



Xurshid SHOMURODOV, Qashqadaryo  
viloyati, Koson tumanidagi R.Xudoyorov nomli  
maktabning 4-sinf o'quvchisi:

-Men bo'sh vaqtlarimda qo'limga qalam olib,  
rasmlar chizishni yoqtiraman. Ko'proq qadimiy  
Misrni mo'yqalamlarimda tasvirlashga harakat  
qilaman. Ularning turmushlari, madaniyati, tarixi  
meni juda qiziqtiradi. Shuning uchun ham ularning  
beqiyos va go'zal malikasi Kleopatrani chizish  
niyatim bor. Leonardo da Vinching «Mona Liza»si  
butun dunyoni hayratga solgan. Men ham ana  
shunday betakror rasmlar chizib, kelgusida taniqli  
rassom bo'lmoqchiman.



milliy va uyg'ur taomlarini pishirishni o'rgatishadi.  
O'rganganlarimni sinfimizdagi qizlarga ham o'rgatib  
turaman. Uyda pishirgan taomlarim esa barchaga birdek  
manzur bo'layapti. Bu kursni bitirgach, sartaroshlik  
kursida ham o'qimoqchiman. Meni yana poytaxtimizdagi  
«Mashhura» o'quv markazida tajribamni oshirib,  
kelajakda xususiy «Go'zallik saloni» ochish niyatim bor.

# Mening bo'sh vaqtim

Maktabdan qaytgach, ko'pgina bolalar turli  
to'garaklarga, sport mashg'ulotlariga borishadi.  
Ba'zilari esa uyida ota-onalariga yordam  
berishga harakat qilishadi. Sizning bo'sh  
vaqtingiz qanday o'tishini bilish maqsadida, biz  
«Mening bo'sh vaqtim» nomli yangi rukn tashkil  
qildik. Quyida ba'zi tengdoshlaringizning bo'sh  
vaqtlarini qanday o'tkazishi haqida bilib olasiz.  
Siz ham bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazishingiz  
haqida bizlarga maktub yo'llang.

Dunyoda har narsaning uvoli  
yomon. Lekin, undan yomoni -  
umrning uvol bo'lishidir.

«Hadislar kitobi»dan

Odina SIDDIQOVA, Qashqadaryo viloyati, Kasbi  
tumanidagi 44-o'rta maktabning 8-«A» sinf  
o'quvchisi.

- Men she'r yozishga qiziqaman. Kelajakda  
Zulfiyaxonim, Halima Xudoyberdiyeva, Zulfiya  
Mo'minovadek yetuk shoira bo'lish istagim bor.  
Quyidagi she'rimni esa tengdoshlarimga tortiq  
qilmoqchiman:

## YER-U OSMONNI QUCHDIM

Bir kun tongda qarasam,  
Qor yog'yapti bo'ralab.  
Quyosh arang ko'rinar,  
Derazamdan mo'ralab.  
Oppoq qordan chiroyli,  
Bir Qorbobo yasadim.  
Uni burni sabzidan,  
Bo'yoq bilan bezadim.  
Keyin chanani olib,  
Balandlikdan xo'p uchdim.  
Shuvillab uchganda-chi,  
Yer-u osmonni quchdim.



Anora  
HOJIMURODOVA,  
Farg'ona viloyati,  
O'zbekiston tumani,  
7-sinf o'quvchisi:

-Qiz bola kelajakda  
oila bekasi bo'ladi.  
Shuning uchun ham u  
barcha uy yumushlarini  
bajara olishi kerak.  
Men bo'sh vaqtimni  
bekor o'tkazmaslik  
maqsadida,  
qishlog'imiz qoshida  
ochilgan O'quv

markazining pazandachilik  
kursida o'qiyapman. Bu yerda  
bizga turli pishiriqlar, salatlar,  
milliy va uyg'ur taomlarini pishirishni o'rgatishadi.  
O'rganganlarimni sinfimizdagi qizlarga ham o'rgatib  
turaman. Uyda pishirgan taomlarim esa barchaga birdek  
manzur bo'layapti. Bu kursni bitirgach, sartaroshlik  
kursida ham o'qimoqchiman. Meni yana poytaxtimizdagi  
«Mashhura» o'quv markazida tajribamni oshirib,  
kelajakda xususiy «Go'zallik saloni» ochish niyatim bor.

Sarvinoz RIZQULOVA,  
Buxoro viloyati,  
G'ijduvon tumani,  
«Yosh qalamkashlar»  
to'garagi a'zosi.

- Men  
tumanimizdagi 1-son  
o'quvchilar ijodiyot  
markazining «Yosh  
qalamkashlar» to'garagi  
a'zosiman. Bizning  
to'garamiz a'zolari turli  
mavzularda she'rlar, ertaklar,  
hikoyacha-yu maqolalar yozishadi. Biz bu yil «Tong  
yulduzi» gazetasiga obuna bo'ldik. To'garakka  
kelganimizda undagi maqola va she'rlarni o'qib  
mazza qilamiz. Bu yerga gazeta kelsa, hammamiz  
uni hayajon bilan ko'rib chiqamiz. Chunki unda  
bizning maqolalarimiz ham bosilib turiladi-da. Men  
fursatdan foydalanib, sevimli gazetamiz orqali  
barcha tengdoshlarimga salom yubormoqchiman.  
Va ular bilan jon-jon deb do'stlashib, maktub  
yozishgan bo'lardim.



Mohinur QURBONOVA, Surxondaryo  
viloyati,

Termiz tumanidagi 16-umumiy o'rta  
ta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi.

-Sevimli gazetam bo'lmish «Tong  
yulduzi»ning har bir sonini qoldirmay o'qib  
boraman. Tengdoshim, buning ustiga  
hamshahrim bo'lgan Umida

Niyozovaning yozgan she'rlarini gazeta  
sahifasida o'qib, unga havasim keldi.

Men ham bo'sh vaqtimda she'rlar  
yozib turaman. Bizning shahrimiz  
chegara atrofida joylashgan.

Men bizning tinchligimiz  
uchun kecha-yu kunduz  
sarhadlarimizni qo'riqlayotgan

askar akalarimga bag'ishlab she'r yozgandim.  
She'rimni sahifalaringda chop etilganini ko'rsam,  
boshim ko'kka yetardi:

## ASKAR

Yurakdan saqlaydi Vatanni, shonni,  
Yov kelsa tikadi hattoki jonni.  
Askarlik nomiga dog' tushirmay hech,  
Doimo asraydi ona Vatanni.  
Xalqimning posboni, vijdoni o'zi,  
Har lahza talpinar Vatani sari,  
G'urur-la jaranglar askarlik so'zi,  
Doimo omon bo'l o'zbek askari!



# OLTIN BESHİK

(O'zbek xalq ertagi asosida)  
Qadimiy uylardan biri. Uy yoniga  
qo'yilgan so'rada cholu kampir  
suhbatlashib o'tirishibdi.

**Chol:** -Mana kampir, o'zimizning  
ikki nafar qizimiz ham, asrab olgan  
o'g'limiz ham voyaga  
yetib qoldi. Endi  
o'g'limizni  
uylantirsakmikan?

**Kampir:** -To'g'ri  
aytasiz. O'g'lingizni  
chaqirtiraylik-chi, o'zi  
nima derkin. Hoy,  
o'g'lim, qayerdasan?  
Kelaqol.

**Kampirning**  
yoniga bir xunuk yigit  
chiqib keladi.

**Chol:** - O'g'lim, endi sening  
yoshing ulg'aydi. O'n sakkizga  
kirding. Biz seni uylantirsak degan  
edik. Mana shu shahardagi kimning  
qizini olasan?

**O'g'il** (O'ylamay-  
netmay): -Men sizning mana shu  
katta qizingizni olaman.

**Kampir:** -O'y lab  
gapirdingmi, o'g'lim? U senga  
xuddi singilday bo'lib qolgan.  
Qanday bo'larkin?

**O'g'il:** -Dada, men sizning  
katta qizingizni olaman, dedimmi,  
olaman.

**Yigitning bu gapini eshitgan**  
chol-kampir va uning qizlari o'yga  
toladilar. Qizlar juda xafa.

**O'g'il:** -To'yga hozirlik ko'ringlar.  
Gapim tamom-vassalom.

**Oqshom.** Opa-singillar g'amgin  
o'tirishibdi.

**Dilnoza:** -Singlim, akamning fe'li  
juda yomon. Undan qanday qilib qutilsak  
ekan?

**Dilrabo:** -Opajon, keling, yaxshisi  
qochib ketaylik. Akamizdan qutilamiz,  
qo'yamiz.

**Dilnoza:** -Rost aytasan. Bo'lmasa,  
tezroq qochib ketaylik.

**Opa-singillar** kiyim-kechak va  
boshqa narsalarni yig'ishtirib,  
tugunga soladilar. Ozroq oziq-ovqat  
oladilar va sekin uylaridan chiqib  
yo'lga tushadilar. Yo'l yursalar ham  
yo'l yuradilar. Bir joyga yetib, dam  
olmoqchi bo'ladilar.

**Dilnoza:** -Uh, charchab ketdim.  
Kelaqol singlim, dam olaylik.

**Dilrabo:** -Uf, men ham  
charchadim. Suv ichгим kelib ketdi. Voy,  
qarang, ana u yerda hovuz bor ekan.

**U shunday deb hovuzga borib**  
suv ichmoqchi bo'ladi.

**Dilnoza:** -Bu hovuz kiyiklar suv  
ichadigan hovuz. Ichma! Kiyik bo'lib  
qolasan! (Qichqirib aytadi). Endi  
ketdik. Boshqa yerga borib suv ichib  
chanqog'imizni bosamiz. Yuraqol,  
singlim.

**Opa-singillar** yo'lga tushadilar.  
Biroz yurganlaridan so'ng, Dilrabo  
orqada qola boshlaydi.

**Dilnoza:** -Haligi joyda bir poy  
kovushim qolibdi.

**Dilrabo:** -Nima bo'ldi?

**Dilnoza:** -Bor, darrov olib kel, lekin

haligi suvdan ichmagin! Xo'pmi?

**Sahnada** hovuz bor joy  
ko'rinadi. Dilrabo kela solib  
suvdan ichib oladi. Kiyik bo'lib  
qoladi. Yig'laydi. Ikki poy  
kovushini shox qilib boshiga ilib  
oladi.

Aziz bolajonlar! Tengdoshingiz  
Mehrnoz ALIYEVAni yaxshi taniysiz.  
Yodingizda bo'lsa, uning «Siz tengi yo'q  
dunyoda» nomli ilk she'riy kitobchasi «Tong  
yulduzi» sahifalarida chop etilgandi. Ijodga  
oshno qalb, bir zum bo'lsa-da, hayot  
zavqidan bahra olishdan, yoshlik shijoatini  
oq qog'oz yuziga muhrlashdan to'xtamaydi.  
Mehrnozning «Men bir she'r yozayki» nomli she'riy  
to'plami, «Ertaklar ezgulikka etaklar» (Bolalar  
teatrlari va maktab sahnasi uchun o'zbek xalq  
ertaklari asosida ssenariylar) nomli kitoblari chop etilib,  
o'z muxlislariga yetib bordi. Ayni vaqtda Mehrnoz Andijon  
viloyati kasb-hunar ta'limi boshqarmasiga qarashli ADU  
qoshidagi litsey-internatning II- «J» sinfida tahsil oladi.  
O'zining zukkoligi, mehnatsevarligi va bilimga  
chanqoqligi, tirishqoqligi tufayli ta'lim dargohining  
barcha tadbirlarida faol ishtirok etadi. Qalami kun  
sayin charxlanib borayotgan yosh ijodkorga parvozning  
yanada baland bo'lsin, deymiz.

**Opasining**  
oldiga chopadi.

**Dilnoza:** (Yig'lab) -Senga suvdan  
ichmagin deb aytgan edim-da. Mana,  
kattalarning gapiga kirmaslikning oqibati.  
Voy sho'rim, endi nima qilsam ekan?  
Hay, mayli, bo'lar ish bo'libdi. Qani, yur,  
ketdik.

**Tog'** etagidagi chashma bo'yiga  
keladilar. Kiyikka aylangan qiz  
chashma bo'yida o'tlab yuradi.  
Opasi toshga suyanib mungli qo'shiq  
kuylab, yig'lab o'tiradi. Birdan haligi  
tosh yorilib, Dilnoza toshning ichiga  
kirib g'oyib bo'ladi. Singlisi bir payt  
qarasa, opasi yo'q. Qidirib toshlarni  
aylanadi. Har bir toshni sinchiklab  
ko'zdan kechiradi. Qarasa, haligi  
opasi o'tirgan toshning orasidan bir  
tutam soch chiqib turgan emish.

**Dilrabo:** -Opamni tosh yutibdi  
(yig'lab):

Ochil-ochil, tosh-ey,  
Men senga yo'ldosh-ey.  
Bir opam bor, ko'rayin,  
Diydoriga to'yayin.  
Ochilgaysen, ochil,  
Ochilsang ham ochil.  
Ochilmasang ham ochil,  
Ochil deyman ochil...

deb Dilrabo toshni tirnab yig'laydi.  
Toshning ichkarisidan opasining  
ovozi keladi:

Ochil, toshim, ochil,  
Ochilsang ham ochil.  
Shu joyda bir singlim bor,  
Diydoriga etma zor,  
Men singlimni ko'rayin,  
Diydoriga to'yayin.

Shu vaqt birdan tosh tarsillab  
yoriladi. Toshning orasidan Dilnoza  
chiqib keladi. Dilrabo uning yoniga  
chopib boradi.

**Dilnoza:** -Sen mening so'zimga  
kirmay, hovuzdagi suvdan ichding-da,  
mana, kiyik bo'lib qolding. Senga o'pka  
qilib chiqmay degan edim. Lekin senga  
ichim achidi. Endi quloqsiz bo'lmagin.  
Bundan xulosa chiqarib ol. Qani, ketdik  
bo'lmasa.

**Opa-** singil yo'l yurishib, bir  
yurtga yetib keladilar. Bir kampirni  
uchratib qolib, undan joy  
so'raydilar.

**Opa-singillar:** -  
Assalomu alaykum, onajon!

**Kampir:** -Vaalaykum  
assalom. Hoy, qizim, kim  
bo'lasizlar, qayerdan  
kelyapsizlar? Mana bu kiyik  
sening kiyigingmi?

**Dilnoza:** -Onajon!  
Hasratim juda uzun. Bu  
kiyik emas, kiyiklar suv  
ichadigan hovuzdan  
ichib, kiyikka aylanib  
qolgan singlim bo'ladi. Bizga  
joy bering. Bu yerda hech  
kimimiz yo'q. Menga asrandi  
akam uylanmoqchi bo'lgani  
uchun qochib ketdim.

**Kampir:** -Yuringlar,  
qizlarim.

**Qizlar** kampirnikida yashay  
boshlaydilar. Dilnoza har kuni  
kampirning uyini supurib-sidiradi.  
Non-choy, ovqat tayyorlaydi. Bir kuni  
shu yerdan o'tib ketayotgan yurt  
podshosi Dilnozani ko'rib, oshiq  
bo'lib qoladi.

**Podshoh:** -Men shu go'zal qizga  
uylanishim kerak. Hozir sovchilarni  
yuboraman.

**Kampirning uyiga sovchilar**  
kelishadi.

**Sovchilar:** -Assalomu alaykum,  
onajon! Biz qizingizga qulchilikka keldik.  
Shohimiz shu qizingizga oshiq bo'lib  
qolibdi.

**Kampir:** -Agar shohimiz ma'qul  
ko'rsalar, biz kabi bir kambag'alni  
o'zlariga teng bilsalar, marhamat, bir qizim  
emas, ming qizim bo'lsa ham, u kishiga  
berganim bo'lsin.

**To'y sahnasi.** O'rtada shoh va  
Dilnoza yasanib o'tiradilar. Yor-  
yorlar, o'yin-kulgu davom etadi.

**Sahna qorong'ulashib,** so'ng  
yorishadi. Oradan bir yilcha vaqt  
o'tgan. Podshoh ovga jo'namoqda.

**Podshoh:** -Men ovga jo'nab  
ketyapman. Ehtiyot bo'linglar. Ayniqsa,  
Dilnozani ehtiyot qilinglar. Vaqti kelib,  
ko'zi yorib qolsa, menga xabar beringlar.

**Shohni kuzatuvchilar:** -Omin,  
safaringiz bexatar bo'lsin. Eson-omon  
borib keling.

**Shoh ketgandan** so'ng, katta  
xotini hammani sayrga chorlamoqda.

**Katta xotin:** -Hoy, Dilnoza oyim,  
uyda dimiqib o'tiravermay, boqqa chiqib,  
bir aylanib kelaylik. Hovuz bo'yida  
o'tiramiz.

**Hovuz bo'yiga** chiqishgach, katta  
xotin Dilnozani hovuzga itarib  
yuboradi. Buni kiyikka aylangan  
Dilrabo ko'rib turadi. Shoh ovdan  
qaytadi. Uyga kirib Dilnozani  
so'raydi.

## Maktab sahnasi uchun

**Katta xotin** bir cho'risiga  
Dilnozaning kiyimlarini kiygizib, xuddi  
unga o'xshatib o'tirgizib qo'ygan  
bo'ladi. Shoh buni sezmaydi.

**Podshoh:** -Oyoqlarimni uqalab qo'y.

**Dilnoza** suratidagi cho'ri  
shohning oyoqlarini uqalay  
boshlaydi.

**Kiyik qiz:** - Bu pochchamning  
oyoqlari, bu cho'ring oyoqlari.

**Shoh:** (Hayron) -Nimalar deb  
valdirayapsan? Har doim «Bu  
pochchamning oyoqlari, bu opamning  
oyoqlari» der eding-ku. Nega endi «bu  
cho'ring oyoqlari» deyapsan?

**So'ng xotinini chaqiradi.**

**Podshoh:** -Nima gap o'zi?

**Katta xotin:** -Bu og'ziga nima kelsa  
valdirayveradi-da. Yaxshisi, uni so'yib  
yuboraylik. Juda kiyik go'shti yegim  
kelyapti. Mana shu kiyikni hozir so'yib  
berasiz!

**Shoh taraddudlanib turib qoladi.**  
Bu so'zlarni eshitgan kiyik suratidagi  
Dilrabo hovuz bo'yiga borib, yig'lab  
qo'shiq kuylay boshlaydi:

**Pichoqlarni qayradilar,**

**Fomog'imga tiradilar.**

**Hozir meni so'yadilar.**

**Qayda bo'lsang, yetish tezroq,**

**Nima desang, shu bo'layin,**

**Opa, sendan o'rgilayin.**

**O'lmay turib bir ko'rayin,**

**Diydoriga bir to'yayin,**

**Jonim opam, yetish tezroq.**

Dilrabo shu so'zlarni aytib,  
chinqirib yig'layveradi. Hovuzning  
ichidan ovoz eshitiladi.

**Dilnoza:**

**-O'zim daryo ichinda,**

**Sochim daryo tashinda,**

**Oltin beshik qoshimda,**

**Hasan-Husan qoshimda.**

**Jon, singiljon yig'lama,**

**Xurak-bag'rim dog'lama.**

**O'laman, deb chog'lama,**

**Fez pochchangga xabar ber.**

**Bu gaplarni eshitib turgan**  
shohning vaziri bo'lgan gaplarni  
shohga aytib beradi. Podshoh  
odamlarni boshlab kelib, hovuzning  
suvini paqir bilan olib quritadi.  
Hovuz tubida ikki yoniga beshikni  
qo'yib, Hasan-Husanni allalab  
o'tirgan Dilnoza ko'rinadi. Shoh  
sevinib bolalarini qo'lga oladi,  
erkalaydi.

**Shoh:** -Mana bu cho'ri bilan katta  
xotinimni otning dumiga bog'lab,  
cho'lga haydab yuboringlar. Endi eng  
zo'r tabiini chaqirib kelib, mana bu kiyik  
qizni davolatinglar.

**Eng ulug' hakimni olib**  
keladilar. U duo o'qib, kiyikka  
aylangan qizning yuzidagi kiyik  
suratini olib tashlaydi. Dilrabo  
asliga qaytadi.

**Podshoh:** -Hamma xursandchilik  
qilsin. Qirq kecha-yu kunduz to'y  
qilinglar. Yaxshilik g'alaba qilgani,  
mamlakatimizda uzoq yillar adolat  
o'rnatilgani uchun bayram qilaylik!  
Mahallalarimiz va yurtimiz doimo obod  
bo'lsin!

O'yin-kulgu davom etadi.



### 3. QOYILMAQOM TOVUQXONA

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Oradan yillar o'tdi.

Biroz devonavorroq, g'aroyib fe'l-atvorli o'qituvchimiz Sunnat Aliyevichning qonida bor fazilatmidi, o'lchoqli «me'yorga» tushmas shunaqaroq odammidi yoki bizlarni sinamoqchi bo'lib hazil-lasharmidi, bir-biridan ajabtovur gap-so'zlari meni hamon o'ygatoldirib keladi. Har qalay domla barcha tengdoshlarim orasida yaxshi taassurot qoldirgan, hamon eslab yuramiz.

Ayniqsa, bolalikda miyaga chappa o'rnatilgan tasavvurdan qutilish qiyin kecharkan. Toshkentga kelib, o'sha ulkan «yapaloq tosh» umuman bo'lmagan, yo'qligiga ishonch hosil qilgan bo'lsam-da, hamon qayerdadir borday tuyulaveradi: nomida biroz ayqash-uyqashlik bor ikki mashhur shaxs boshqaboshqa odam, hatto egizak ham bo'lmaganligini bilib tursam-da, uzoq yillar davomida bitta odam

qiyofasida gavdalanavergan... G'.G'ulom, Oybek kabi buyuk allo-malarga-ku umuman yaqinlashib bo'lmagligiga allaqachon ishonib qolgandim...

Mashhur shoir Quddus Muhammadiy bilan bemalol gaplashish, hatto u kishi boshqaradigan adabiyot to'garagiga a'zo bo'lib kirish mumkinligini eshitib, shahar markazidagi o'quvchi-bolalar saroyiga bordim, ustozning adabiy saboq darslariga qatnay boshladim.

Quddus akaning ham o'ziga xos fazilatlarini ko'p edi: biron jurnal yoki gazeta sahifalarida shogirdlari ijodidan namunalar chop etilishi u kishini behad quvontirib yuborar, ulardan bir qo'ltiq qilib tanish-bilishlariga ulashar va albatta «bu bizning to'garakdan chiqqan» deb qo'shib qo'yardilar.

Mashg'ulotlarga qatnab yurgan paytlarimizda ham dasta-dasta kitob ko'tarib kelib, o'qinglar deb, hammamizga bittadan tarqatardilar. Bu kitoblar, shubhasiz, bizdan oldingi «shogird»larining yangi bosil-

ib chiqqan asari bo'lardi.

Muzika bilim yurtini bitirib, adabiy to'garakdan «uchirma» bo'lganimizdan keyin ham ustozni tez-tez yo'qlab turardik. Ayniqsa, she'r yoki hikoyadan iborat biron mashqimiz matbuot yuzini ko'rsa, suyunchi olmoqchiday u kishi huzuriga chopardik.



Ilk kitobimning namuna nusxasi qo'limga tekkan kun to'garakdoshim Sulton Jabbor bilan Quddus domlani xursand etmoqchi bo'ldik.

- Men ham quruq bormay. Hovliga ketdik. Dalaning mevasidan ustozga olib kelamiz, -

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning 100 yilligiga

dedi u.

Aslida Sulton aka har ko'rganda shahardan ancha chet, Bo'kaga boraverish katta asfalt yo'l betkayidagi bog'-rog'li hovllilariga olib ketaman, deb qolardi. Nasiba bugungi kunga qo'shilgan ekan.

So'rilarda «Husayni», «Kattaqo'rg'on» uzumlarining savatday-savatday boshlari kuz oftobi selida oltinday tovlana-di. G'arq pishib yetilgan jonoqi olmalar, yirik-yirik nashvatilar o'z shoxlarini sindirguday yerga qadar bukkan. Tomorqa etagidagi anjir mevalari ham bol bog'lab yotibdi.

Havoning tarovati o'zgacha.

Vaqt allamahal bo'lguncha rayhon va turfa gullar hidi ufurib turgan yalanglik ro'yasidagi karavotda jim-jim yulduz to'la osmon yuziga qaragancha gurunglashib yotdik.

Ertalab barvaqt turdik. Biriga uzum to'latilgan, ikkinchisiga har xil mevalar solib, ustidan anjir terilgan va uning shapaloq barglari bilan yopilgan satil chelaklarni ko'tarib, katta yo'l bo'yiga chiqdik.

Quddus aka kitobni ko'rgach, quvonib ketdi.

- Yodgor, Yodgor! - deya odatdagiday ovozlari baland qo'yib rafiqalari - kelinoyini chaqirdi. - Mana, ko'rib qo'y, shogirdimning birinchi asari bosilib chiqdi, - kitobchani baland ko'tarib ko'rsatdi, so'ng, - Tolib Yo'ldoshni ham chaqir, tezroq kelsin, - dedi.

Biz Tolib Yo'ldosh nomini ko'p eshitir, she'rilarini o'qib, yod olardik. Demak, u kishi ham shu yerda ekan-da! Juda savlatdor, bahaybat odam bo'lsa kerak, deb xayolimdan o'tkazib turgandim, bir payt boshiga eski chit ro'mol tang'ib olgan, qoshlari haddan ziyod o'siq va qalin, xipcha gavdali, oyoqlaridan tortib, shim pochalari shimarib qo'yilgan tizzalari ko'zigacha loy chaplanib yotgan o'rta yashar kishi ayvon ro'yasida paydo bo'ldi.

(Davomi bor.)

Dadaxon NURIY.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Men maktabga yosh bordim,  
Anig'i, besh yoshimda.  
Savodimning ahvoli  
Fo'g'risi, yo'q yodimda.  
Uchinchi sinfdalik  
Chog'larimni eslayman.  
Xutug'im bilan birga  
Dog'larimni eslayman.  
Devoriy gazetamiz  
Yangi sonin o'qisam,  
Men «yaxshi»chi ekanman,  
O'rtadi o'kinch, alam  
Sal harakat qilsam-ku,  
A'lochi bo'larkanman.  
Falonchilar maqtalgan  
Ulardan nega kamman?  
Otam doim maqtar-ku  
A'lo o'qir, deb bolam.  
Shu maqtovlar oldida  
O'zimni sezdim mulzam.  
O'z-o'zimni tergadim,  
Bildim o'zimning holim.  
A'lochilar safiga,  
Qo'shmay, haqdir muallim.  
Hamma fandan ustozim  
«Besh» qo'ymagan ekan-da.  
Kimsan, rais o'g'liman  
Xuz qo'ymagan ekan-da.  
Otam bundan bexabar,  
Maqtar yana beparvo:  
-Ozoda mening bolam,  
O'qishi, xulqi a'lo.  
Bu rag'batni, ishonchni

### NIHOLDA HAM BOR XAYOL

Alishmayman oltinga.  
Faxshi so'z-son ozig'i,  
Vetaktarkan oldinga.

VII

Elliginchi yillarning  
Suroini kezib yurar.  
Goh shabada, goh hayot  
Fo'foni kezib yurar.  
Kolxozchilar fidoyi,  
Azondan-kech ishlaydi.  
Shior qilib olishgan:  
«Ishlagan non tishlaydi».  
Qattiqqo'llik-fazilat,  
Rahbar qamchi o'ynatar.  
Buyruqbozlik, bo'l, ho bo'l  
Asablarni qiy-ratar.  
Sarosima qo'zg'aydi  
Normatovning kelishi.  
Firqa qo'mitasining,  
Kotibidir, birinchi.  
Savlat to'kib o'tirar  
Otda yoki faytunda.  
Uni ko'rgan katta-yosh  
Ko'zdan g'oyib bir zumda.  
Nechundir u so'nggi payt,  
Fiz-tez kela boshladi.  
Kolxoz ishin tekshirib,  
Ko'p titkilay boshladi.  
Otam juda to'g'riso'z  
Saqlab qo'ygan siri yo'q.  
Faqat ish deb kuyinar,

Ko'nglida hech kiri yo'q.  
Ishga berilganidan,  
Vaqtida yeb-ichmaydi.  
Dam olishni unutgan,  
Etigini yechmaydi.  
Faxshini hurmat qilar,  
Vijdonli, nomus-orli.  
Kolxoz tilga olinar  
Oldingilar qatori.  
Ammo kotib bezovta,  
Sira moshi pishmagan.  
Murosa yo'q o'rtada,  
Ikkovi kelishmagan.  
Normatov qatnashmoqda  
Qishloqdagi yig'inda.  
Otam biroz kechikkan,  
Ket, to'ng'iz!- debdi shunda.  
Eshikni yopayotib  
Otam ham aytgan oshkor:  
-Sizga to'ng'iz kerakmi,  
Xumaloq to'qayda bor.  
Shu yerlik emas kotib,  
Kelgan u boshqa joydan.  
Kengashib, fikr olgan  
Kadxudo har faoldan.  
Mustaqil fikrlini  
Hisoblabdi yo'l buzgan.  
Shundaylarni mansabdan  
Olish rejasin tuzgan.  
Deganki, bu tumanda  
Qaysi rahbar «mard», bebosh?  
-Olimov kabilar bor...

Razzoq IBROHIM.

Kadxudo qilgan-da fosh.  
Ikki kolxozning yeri  
Suv ichgan hu solmadan.  
Solmaning yaqinida  
Bor yakka uy, xonadon.  
Bunda foqut xalfalar,  
Qo'shni kolxoz a'zosi.  
Bizning kolxozdan ekan  
Fomorqasin birozi.  
Chug'ulchi, chaqimchilar  
O'tishgan guvohlikka.  
Firnoqdan kir axtarib,  
Xuz tutgan gumrohlikka.  
Chang chiqarib, otamning  
Payini qirqish uchun.  
Kotib kurash boshlagan,  
Mansabdan yiqish uchun.  
Jamo'a yer-mulkini  
Qilgan deb talon-taroj,  
Besh yilga qamoq jazo...  
Ko'zimizda halqa yosh.  
Otamizni ko'rgani,  
Farzandlar bordik birga.  
Bolalar yosh deb, jazo  
Keltirildi uch yilga.  
Kotibning qulog'i ding,  
Ovchining tozisiday.  
Sud payti borib-kelgan,  
Bo'zchining mokisiday.  
-Beribsizlar yilni kam!  
O'shqirib «bobob»lagan.  
Yotig'i bilan uni,  
Prokuror ham boplagan...  
(Davomi bor.)

Bolalar, «Til bilgan el biladi», degan naql bor. Darhaqiqat, turli tillarni mukammal o'zlashtirib olgan aka-opalaringiz hozirgi kunda xorijda vakolatxonalarda, tashkilot-u, tumanlarda faoliyat ko'rsatib, jahonni qoyil qoldirayotganlari haqida eshitib, ularga havas qilayotgan bo'lsangiz kerak. Havas qilish yaxshi hislat. Insonni ezguliklarga chorlaydi.

Bugungi suhbatdoshimiz O'zbekiston jahon tillari universitetining talabasi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori Malika RAHMONBEKOVA bilan bu borada olib borayotgan ishlari hususida suhbatlashdik.

-Xorijiy tillarni o'rganish ancha mehnat talab qilsa kerak?

-Men ijtimoiy yo'nalishdagi respublika maxsus gimnaziyasida o'qidim. Bizga ingliz tili o'qituvchisi Xolida opa dars berardilar. Ularning darslari juda qiziqarli bo'lib, o'zlari barcha so'zlarni chiroyli va to'g'ri talaffuz qilardilar. Bizlardan ham to'g'ri talaffuzni ko'p mashq qilishni talab qilardi. 5-sinfda o'qib yurganimda fransuz tilini o'rganishga kirishdim. Bu tilga oid ko'plab kitoblar topdim. Soatlab dars tayyorlardim. Ustozim Dilorom opa Vahobovadan ko'p narsa o'rgandim. Ustozlarimning bergan bilimlari tufayli qiynalmasdan universitetning fransuz filologiyasi fakultetiga o'qishga kirdim.

-Malikaxon, yaqinda Fransiya davlatida bo'libsiz. Safar taassurotlari bilan

o'rtoqlashsangiz.

-Parijda ijodkor bolalar festivalida qatnashdim. «O'zbekiston-mening vatanim» mavzusida fransuz bolalariga gapirib berdim. Chizgan rasmlarimni ularga sovg'a qildim. Rasmlarimda diyorumizning go'zalligi, bolalarning baxtiyorligi tasvirlangan edi. Fransiyada ko'plab do'stlar orttirdim. Ular bilan xat orqali muloqot qilib turaman.

## ZULFIYAXONIMNING ZUKKO QIZLARI

-Respublika o'quvchilar saroyida fransuz tilini o'rganish to'garagini boshqarar ekansiz. Ushbu to'garakda pul to'lab o'qishadimi?

-2002 yildan buyon ushbu to'garakni boshqarib kelaman. Mashg'ulotlarimga Fransiyaning O'zbekistondagi madaniy markazidan mutaxassislar kelib, o'quvchilarimning bilim, malakalarini sinashdi, test o'tkazishdi. Mutaxassislar bolalarning bilimlarini yuqori baholashdi. Respublika o'quvchilar saroyi qoshida ochilgan to'garaklarning hammasi bepul. Bolajonlar bu yerda o'zlari qiziqqan to'garaklarda puxta bilim olishadi.

-Fransuz tilida ham kitob chop ettiribsiz deb eshitdik.

-«O'zbekiston» nashriyotida «Yangi orol», «O'qituvchi» nashriyotida esa «Qorparcha» nomli kitoblarim o'zbek, rus

va fransuz tillarida chop etilmoqda.

Ertamiz egalari

«O'zbekcha va fransuzcha so'zlashni o'rgan» nomli kitobimni «Kamolot» Yo'II yordamida, «Yangi asr avlodi» nashriyotida chop ettirilayapti.

Oddiy o'zbek qizining Fransiya davlatida bo'lib, ona O'zbekistonimiz yoshlarining buguni va ertasi haqida fransuz bolalariga to'liqlanib so'zlashi, bu mustaqilligimiz bergan behisob ehsondir, desak aslo mubolag'a emas. Biz Zulfiyaxonim izidan dadil odimlayotgan Malika opangizning kelgusi ishlarida yuksak zafarlar tilaymiz.

Nuriddin HAYDAROV suhbatlashdi.



Sog' tanda - sog'lom aql

## O'ZINGIZNI — O'ZINGIZ DAVOLANG

Dehqonlarimizning erta bahordan to kech kuzgacha bel bukib mehnat qilishlarini ko'rgansiz: yer chopishadi, urug' ekishadi, o'toq qilishadi, hosilni o'rib-yig'ishtirishadi. Shu bois umurtqa pog'onasining orqa tomoni ancha muddat ochiq holda bo'ladi, o'sha ochiq joydan asta-sekin et o'sib qoladi. O'sha o'sib qolgan et suyak orasida ezilib turishni, qadni tik tutishni qiyinlashtiradi. Ayniqsa, tik turilganda odam toliqadi, engashibroq yurilsa yengil tortadi. Qisqasi, o'sha o'simta insonni ega boshlaydi.

Shu kasallikka uchrab, keksayganda munkayib qolgan odamlar ham ko'p, ular odatda harakatchan bo'lishadi, yumushlarini engashgan holda bajaraverishadi... Shu holning oldini olish mumkinmi? Mumkin bo'lsa, qanday qilib?

Avvalo, har bir odam o'z ish faoliyatini asosan qay holatda bajarishiga e'tibor berishi kerak. Agar ko'proq engashib ishlangiz, umurtqa pog'onasining orqa tomoniga et bitmasligi uchun orqaga egilib mashq qilish lozim bo'ladi. Masalan, so'rining qirg'og'iga orqa qilib o'tirasiz, oyog'ingizni kimdir bosib yoki ushlab turadi va



siz orqa tomonga egilasiz. Qo'llaringiz boshingiz orqasida changak holatda bo'lsin. Iloji boricha pastroq egilishga harakat qiling.

Bu mashqning ikki tomonlama foydasi bor: birinchidan, qorin mushaklari baquvvatlashadi, ikkinchidan umurtqa pog'onasining harakat doirasi kengayib, et bitishdan saqlaydi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, 10-15 marta egilib-turib charchagan, picha dam olib yoki kechgga tomon yana shu mashqni takrorlash zarur. Eslatib qo'yay: birinchi, ikkinchi kunlari qorin mushaklaringiz qattiq og'riydi, lekin qo'rqmang, o'tib ketadi. Bu

choshgohda va kechqurun bajariladigan mashq. Engashib ishlaganingizda toliqasiz, shuning uchun orqaga qarab, uch-to'rt marta egilish ham lozim bo'ladi. Har dam olganingizda shuni bajarsangiz, kifoya. Ko'pchilik munkayib qolganini kech payqaydi, bunday holda ko'proq mashq qilishga to'g'ri keladi. Mazkur kasallikni yengish uchun har kuni bir yarim- ikki soat vaqtigizni ayamaysiz. Mashqlardan oldin biroz yugurib, qizib olsangiz ham zarar qilmaydi. Asosiy e'tibor, umurtqa oralig'ida o'sgan etlarni sitib chiqarishga qaratiladi:

1. «Ko'prik» holatida yotib, iloji boricha ko'proq egiling.
2. Ikkinchi kursiga qo'l bilan tiralib, pastga egiling.
3. Tik turgan holda gavgangiz bilan aylanma harakatlarni bajaring (har ikki tomonga).

Shunga o'xshash yana ko'plab mashqlarni o'ylab topsa bo'ladi. Mashqlar oxirida yuztuban yotib, umurtqani uqalatis kerak. Uqalash so'nggida ko'kragingizga qo'lingizni changak qilib, orqaga katta kuch bilan sekin-asta tortsin. Unutmang, yuqorida aytilgan mashqlarni charchaguncha bajarish lozim. Nomigagina bajarilgan mashqlar foyda bermaydi.

Tursun Ali MUHAMMAD.

Orzu

## MENGA OMAD TILANG

Me n yoshligimdan onam, aziz vatanim, go'zal, tabiatim va mehribon ustozlarim haqida she'ryozishga qiziqaman. Kelajakdagi eng katta orzuim - Zulfiya mukofotiga sazovor bo'lish. Bu mukofotni olishga astoydil harakat qilaman va niyatimga albatta erishaman. Quyida sevimli gazetam «Tong yulduzi»ning o'quvchilariga bir she'rlarimni yuborayapman. O'qing va mening niyatlarim ro'yobga chiqishi uchun omadlar tilang.



## SAODATGA ERISHSIN

Har bir makon, davlatning,  
Go'zal, tobar qisi bor.  
O'zbek degan o'latning,  
Parivash yulduzi bor.  
Egnida shohi atlas,  
Varashadi o'ziga.  
Bilimga qo'ygan izlos,  
Donolik zob so'ziga.  
Mehr-u oqibatiga,  
Amaliga til ojiz.  
Vetsin saodatiga,  
Furtimdagi har bir qiz...

Yorqinoy AHMEDOVA,

Farg'ona viloyati 1-gimnaziya litsey - internatining 8-sinf o'quvchisi.

(Ertak)

Qadim-qadim zamonlarda hali olam juda yosh bo'lgan vaqtlarda, Quyosh, Shamol hamda Oy onalari osmonning

so'rabdi Osmon.

-Nimani nazarda tutyapsiz? Uyda o'zi eng kattasi kim? Siz bizdan nimani kutgandingiz? Men bazmga faqat o'zim tushlik qilib,

narsalarini onasiga beribdi.

-Rahmat senga o'zimning mehribonim,- debdi Osmon qiziga. So'ng o'g'illari tomon o'girilib, jahl bilan, sizlar mehrsiz

## QOR

*Opqoq qor, ey opqoq qor,  
Buncha bag'ring beg'ubor.  
Fushlaringda gulbahor,  
Opqoq qor, ey opqoq qor.*

*Qir-adirlar uyquda,  
Bolarilar uyquda.  
Zamin sog'ingan juda,  
Opqoq qor, ey opqoq qor.*

*Osmonlardan ber xabar,  
So'zla, tiling bo'lsa gar.  
Dehqonim yerga zargar,  
Opqoq qor, ey opqoq qor.*

*Madina SAYFULLAYEVA,  
Navoiy viloyati, Zarafshon  
shahridagi 13-umumiy o'rta  
ta'lim maktabining  
9-«A» sinf o'quvchisi.*

## OY NIMA UCHUN BARCHANI MAHLIYO ETGAN?

do'stlari tomonidan bayram kechasiga taklif etilishibdi. Onalari Osmon esa uyda yolg'iz qolibdi.

Quyosh va Shamol yomon bolalar ekan. Ular bayram kechasi dasturxoniga keltirilgan taomlarning barini qizg'onchilqlarcha yeb qo'yishibdi. Ammo uyda ochlikdan jon berayotgan onalari haqida o'ylashmabdi ham. Lekin Oy akalaridan ancha kichik bo'lishiga qaramay, yolg'iz onasini esdan chiqarmabdi. Oldiga qo'yilgan taomlardan oz-ozdan bo'lsa ham olib qo'yibdi.

-Salom bolalar, qanday yangiliklar bor? Bayramdan menga nimalar olib keldingiz? - uyga qaytgan bolalaridan

hordiq chiqargani bordim. Sizga yegulik olib kelish uchun emas, - debdi Quyosh.

-To'g'ri aytasiz, aka, - gapga aralashibdi Shamol, - onamning tishlari tushib ketganidan hatto ovqat yeyishni ham bilmaydilar. Uning ustiga biz yangi kiyimlar kiyib olganmiz, cho'ntaklarimizga hech qanday ovqat sololmaymiz.

-Bas qilinglar, onamni xafa qilmanglar, - akalarining gapini bo'libdi Oy.

Shu so'zlardan keyin kichkinagina Oy kekxa Osmonning yoniga yugurib boribdi-da: - Onajon, men sizga dasturxoniga keltirilgan taomlardan oz-ozdan olib keldim, marhamat, deb olib kelgan

va berahm bolalar ekansiz. Quyosh so'zlarimni yaxshilab tingla: Odamlar seni juda yaxshi

ko'rishlarini bilaman, lekin hozir sen juda xursandsan, issiq nurlaring bilan barchani qizdirasan. Shuning uchun ham odamlar boshqa seni yaxshi ko'rishmaydi va sen kichik o'g'lim Shamol, quruq havoda bo'rondek esasan, odamlar esa seni haddan ortiq yomon ko'rishadi. Lekin sen kichik shirin qizim, doim sokin va takrorlanmas darajada go'zal bo'lasan. Shuning uchun ham barcha odamlar seni sevadilar va senga boqib turadilar.

*Ingliz tilidan Gavhar SHOMANSUROVA tarjimasini.*

HADIS

## GAPLARNING YOMONI



Gaplarning yomoni - bu yolg'onchilikdir, yolg'onni hazil bilan ham, jiddiy ham gapirib bo'lmaydi. Ota o'z bolalariga biron narsani va'da qilib, keyin uni bajarmay qo'ymasin! Rostgo'ylik ezgulikka boshlaydi, ezgulik esa jannatga. Yolg'onchilik yovuzlikka boshlaydi, yovuzlik esa jahannamga. Rostgo'y odamga yaxshi baho, yolg'onchi odamga yomon baho beradilar. Rostgo'y odam chin so'zi bilan borib-borib Tangri huzurida siddiq (so'zida sodiq) deb yozib qo'yiladi. Yolg'onchi ham borib-borib uning huzurida kazzob (yolg'onchi) deb yozib qo'yiladi. Chaqimchilik ham yomon illatdir, chunki u tufayli odamlar o'rtasi buziladi.



## SAN'ATIM — SAODATIM

Raqs mening jon-u dilim. Shu sababli Mirzo Ulug'bek tumanidagi O'quvchilar ijodiyot markazi qoshidagi xoreografiya to'garagiga bir necha yildan buyon muntazam ravishda qatnashib kelayapman. Raqsning jozibali sirlarini chuqur o'rganish maqsadida, poytaxtimizdagi raqs maktabida ham tahsil olaman. Bu yerda ustozim O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Noila opa Ortiqova rahbarligida ko'plab raqslarni o'rgandik. Jumladan, hindcha, turkcha, afg'oncha, arabcha raqslar ham repertuarlarimizni boyitdi. Ayniqsa, o'zbek raqslaridan lazgi, tanovor, buxorocha raqsni ijro etganimizda qalbm chuqur hayajonga to'ladi. Kelajakda Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyevalar kabi taniqli raqqosa bo'lib yetishib, o'zbekimning raqs san'atini dunyoga yoysam deymen.

*Gullola ABDUVAHOBOVA,  
Xoreografiya bilim yurtining 5-sinf o'quvchisi.*



*Bu yerda respublikamizda chop etiladigan gazeta va jurnallarning nomi yashiringan, ularni toping-chi?*

*Tuzuvchi: Dilshod IMOMOV,  
Toshkent shahri, 316-maktabning  
8-«V» sinf o'quvchisi.*

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA.

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,  
Shuhrat AHMEDOV,  
Botir UBAYDULLAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir  
o'rinbosari),  
Abdusaid KO'CHIMOV,  
Nurxon NAFASOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
N: 022 raqam bilan  
2003 yil 11 dekabrda  
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»  
nashriyat-matbaa  
ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»  
nashriyat-matbaa  
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib  
sahifalandi va  
chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba  
kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 46550

Buyurtma N: J-949

Dizayner va sahifalovchi:

Otabek

ESHCHANOV.

Navbatchi:

Ozoda

TURSUNBOYEVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong\_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38

144-38-10

144-21-75

Tel./ faks:

(99871) 144-24-45